

Zamonlar ardog'idagi inson



SCIENCE BOX

Saparboyeva Ziyoda

Ogahiy ijod maktabining 9-sinf o'quvchisi

Annotasiya.

Ushbu maqola Abdulla Qodiriyning misli qo'l urilmagan,tesha tegmagan she'riyati haqida.Unda Abdulla Qodiriy siymosi she'rlarining izchilligi,u har bir she'rida millat fojiaviyligi yoki go'zalligini qay darajada haqqoniy tasvirlab bera olishi tasvirlanadi.Zamona kulfatlari yoki yutuqlari nimadan iborat,mustamlakachilik illatlari,ma'naviyat qashshoqliklari qanday fojialarga olib kelishi-yu,xalq ahvoli ne kechishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: She'riyat,nasr,"To'y",zamon nafasi,hayo daryosidek keng ummon,ummondan tomchi,teran mazmun,tengsiz badiiyat,kuchli va yuksak mahorat, mustamlakachilik illatlari,mangulik poydevori

Bahor...zamin sehrini his qilib turgan samo...Qiziq,bu osmon necha-minglab gunohlar-u,yana qancha savoblarni ko'rdiykin... Dalalarda o'zgacha sukunat,mayin ifor,ruhiyat daryosidek keng ummon...Bu ummon tomchilarining har birida o'ziga xos ajib,rangin tuyg'ular bordek go'yo...Bu keng ummon tomchisi,ammo tomchida quyoshni aks ettira olgan Abdulla Qodiriy-nasr bog'ida bog'bon,nazm bog'ida esa atigi beshta she'r yozgan bo'lishiga qaramay,eng buyuk ehtiromga loyiq bo'lgan insondir.Olimlar,jumladan,Sobir Mirvaliyev uning 112 misradan iborat 5 ta she'ri bor ekanligi,ammo uning nasriy asarlari ichida undan ikki hissa ko'proq ya'ni 198 misra she'ri bor ekanligini qayd etib o'tadi.Abdulla Qodiriy she'rlarining jami hajmi 306 misrani tahrir qiladi.Shulardan,"Kichik asarlar"ida 22 qator,"O'tkan kunlar"da 32 qator,"Mehrobdan chayon"da 98 qator va "Obid ketmon"da 46 qator she'rdan foydalangani yoki she'r yaratgani aytib o'tiladi.Uning she'rlarining soni kam,lekin ular teran mazmuni,tengsiz badiiyati,zamon nafasi va badiiy mahorati bilan ajralib turadi.Qodiriy qisqa,mazmundor satrlarida zamona kulfati,millat loqaydligi,mustamlakachilik illatlari-yu,mavjud qashshoqliklarni so'z orqali jonlantiradi.Bu ma'naviy qashshoqliklar o'zi pok,dili pok ajib tuyg'ularni jumbishga keltiradi.

Abdulla Qodiriy ijodi ancha keng tarixni,o'tmishni va kelajakni anglay olishimiz uchun,fikr ummonining eshiklarini ochishimiz uchun oltin kalit vazifasini o'tay oladi desak,mubolag'a bo'lmaydi.Qodiriy asarlarini o'qish jarayonida biz uning badiiy tasvir unsurlaridan qay darajada mukammal foydalanganini ,so'z ummonidan sohir, o'ziga jalb etuvchi qandaydir maftunkorlikka ega bo'lgan so'zlardan foydalanganini, badiiy mahorati qanchalik kuchli va yuksak ekanligini guvohi bo'lamiz. Qodiriy asarlarini o'qigan har bir inson o'zligidan kechib,asar ichida yashaydi,qahramonlar dardiga sherik bo'lib,yig'lasa yig'laydi,kulsa kuladi...

Asarlarda uchraydigan she'riy misralar har bir asrning maqsad yoki g'oyasidan,qahramonlar holatidan,unda kechayotgan ruhiyat tasviridan kelib chiqqan holda ifoda etiladi.Masalan,"Kalvak Maxzumning xotira daftaridan" qissasida yaxshi va yomon xotin haqida gap yuritilganda hajviy misralar paydo bo'ladi.Balki bu she'r xalq ijod namunasi bo'lishi mumkinligi ham tahmin qilinadi:

Yaxshi xotun sahar turib

Charxini tovlar,do'st bedanam.

Yomon xotun sahar turib,

O'chog'in kovlar,do'st bedanam.

Yomon xotunga qumoch berib,

Qorniga tepsang,do'st bedanam,

Labidan o'psang,do'st bedanam.

Qodiriydagi ziyraklik zamona kulfatini,fojiaaviyligini yoki go'zalligini tez payqashiga zamin yaratadi.U birinchi she'ri bo'lmish "To'y" she'rida shunday satrlarni tilga oladi:

Qildi bul vaqt bizda javlon to'y,

Aqchasi yo'qni etdi hayron to'y.

Bir-biridan oshirdilar to'yni,

Topdi ravnoq,g'ayrat ila boyon to'y...

Ya'ni to'y boy-boyvachchalar uchun pisand bo'lmasa ham,beva-bechora mehnat ahli uchun ko'p hollarda fojiaga aylangan.To'y bilan aza almashib "kim oshish"poygasida ko'pincha yo'qsillar pand yegan,qarzga botib taqdiri achinarli holga tushib qolgan...

Kelingiz,do'stlar,din qarindoshlar,

Tashlasun bo'lsa musulmon to'y,- deya o'z millati boshidagi anduhlarni,g'am-kulfatdan ozod etish maqsadini ilgari suradi.Bu xalqchil satrlar xalq dardini kuylay oladigan orombaxsh satrlardir...

Adibning nasriy asarlarida uchraydigan she'rlariga kelganda endi o'zgacha boy va samarali natijalarga duch kelishimizni ta'kidlab o'tadi professor U.To'ychiyev.

"O'tkan kunlar"asrining uchinchi fasli:"To'y,qizlar majlisi" deb ataladi.Bu yerda gap asosan,to'y arafasida kumush 1qanday ruhiy kechinmalarni boshdan kechirayotganligi,orzu-umidlari,kelajagi,ayol sifatidagi taqdiri haqida boradi.Qodiriy bu holatni shunday tasvirlaydi:"Kumushbibini ham bu qiziq bazmdan boshqalardek his qiladir,suyunib quvonadir,deb o'ylanmasin,chunki vujudi qizlar bazmi ichida bo'lsa ham hayoli allaqayerda uchib yurgandek,ko'zlari o'ynag'uvchi qizlarda bo'lsa ham,ammo haqiqatda boshqa narsani ko'rgandek...ko'rinishdan natija chiqarib aytganda,bu qiziq majlis uning uchun bazm o'rnini emas,aza joyini tutqondek..." Bazm tugaganidan keyin Gulsin bilan Xonimbibi mungli qo'shig'ini aytishadi:

Gulsin:O'rtoqlarim qo'lga olsam torimni,

Beixtiyor yodlaydurman yorimni!

Kumushbibi seskanib ketadi.Xonimbibi va Gulsin qo'shilib keying baytni aytishadi: Bir ko'rib yag'mo qilg'an ko'nglimni,

Qaytib yana ko'rolmadim yorimni!

Bu o'rinda Abdulla Qodiriy unchalik tushunarsiz,qiyin,zanjirli so'zlardan foydalanmasdan,ularni rasmiy she'r tariqasida yozgan.

O'tkir Hoshimov aytganidek:"Eng ayanchli asar bu- o'quvchisi bo'lmagan asardir...".Qodiriy yozgan asarlar mangulikka poydevoriga qo'yilgan g'ishtlardir yoki kelajagimizni yoritguvchi mash'al...

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirvaliyev S. "Abdulla Qodiriy kashfiyoti".-T.-2018-208 b.
2. Xondamir Qodiriy. A.Qodiriy. "O'tkan kunlar"-T.-2019-432 b.
3. U.To'ychiyev qo'lyozma maqolasi.